O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI
Biokimyo instituti

Ro'yxatgaolindi: № BD-60530100 2024 yil "09 26"	"TASDIQLAYMAN" SamDU rektori: _____ R.I.Xalmuradov 2024 yil "__"_____

FRANSUZ TILI
FAN DASTURI

Bilim sohasi:	**500 000-Tabiiy fanlar matematika va statistika**
Ta'lim sohasi:	**530 000- Fizika va tabiiy fanlar**
Ta'lim yo'nalishi:	**60530100-Kimyo**

Fan/modul kodi	O'quvyili	Semestr	ECTS – Kreditlar
ITF2104	2024-2025	1	

Fan/modul turi	Ta'lim tili	Haftadagi dars soatlari
Tayanch tanlov	O'zbek tili	4

1.	Fan nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Umumiy yuklama hajmi (soat)
	Fransuz tili	48/	72	120

Fan maqsadi (FM)	
FM1	Xorijiy tilni o'rta maktabda o'rganish davomida egallagan asosiy bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash. Talabalarning nofilologik oliy o'quv yurtida o'qitishning xususiyatlarini o'zlashtirilishi (ya'ni, xorijiy bilim o'rta makab uslubiyatidan oliy o'quv yurti metodikasiga o'tish). Nutqiy faoliyat ko'nikmalarini takomillashtirish. Auditoriya va mustaqil (auditoriyadan tashqari) mutolaa qilish, og'zaki nutq, o'quv vazifalari doirasida so'zlash, tinglash va yozish ko'nikmalarini shakllantirish. Xorijiy til bo'yicha mustaqil ishlash ko'nikmalarini singdirish. Fan va ta'lim integratsiyasi mazmun mohiyatidan kelib chiqqan holda innovasiyalarni ta'lim tizimiga keng jalb etish, zamonaviy axborot-kommunikasiya tizimidan keng foydalanish va xorijiy mamlakatlarda ta'limni davom ettirishda xorijiy tilni mukammal o'rgatish.

Fanni o'zlashtirish uchun boshlang'ich bilimlar	
1.	5-9-sinf fransuz tili darsligidagi boshlang'ich bilimlar.
2.	10-11-sinflarda va litseyda yoki texnikumda olgan bilimlari. Fransuz tili fani yuzasidan umumiy tasavvur va ma'lum boshlang'ich bilimlar bazasiga ega bo'lishlari kerak. Gapirish ko'nikmalarini, chet tilida fikrlash ko'nikmalarini takomillashtirish
3.	Fanning tushuncha kategoriyalari tizimi va metodologiyasini bilish, bilimlarning asosiy yo'nalishlarini siyosiy tahlil qilish.

Ta'lim natijalari (TN)	
	Bilimlar jihatidan:
TN1	A1 daraja – o'qish jarayonida sodda gaplar (joy nomlari) bilan bayon etilgan so'z va iboralarni tushunishi kerak. (m.n., xarid qilingan buyumlarni qo'llash bo'yicha ko'rsatmalar, belgilar, jadvallar va h.k.)
TN2	A2 daraja – juda qisqa, sodda matnlarni (qaydlar, eslatmalar, ko'rsatmalar) o'qib tushuna olishi, kundalik hayotga taalluqli (e'lon, reklama, menyu) matnlardan o'ziga kerakli bo'lgan ma'lumotlarni topa olishi, qisqa va sodda yozilgan shaxsiy xatlarni o'qib tushunishi ko'zda tutiladi.
TN3	B1 daraja – kundalik turmush va ishga taalluqli so'zlar asosida tuzilgan matnlarni tushunish talaba uchun qiyinchilik tug'dirmasligi, xatlarda bayon etilgan voqyea-hodisalar, joylar, hissiyotlar va tilaklarni tushunishi lozim.
TN4	B2 daraja – dolzarb mavzulardagi maqolalarni o'qib tushuna olishi, zamonaviy nasriy asarlarni o'qib mazmunini tushunishi lozim. Chunki talaba asarni o'qiyotganida uning so'zma-so'z tarjimasiga emas, balki asosiy g'oyasiga e'tibor qaratishi nazarda tutiladi.
	Ko'nikmalar jihatidan:
TN5	A1 daraja (dialog) – zarurat tug'ilganda sodda savollar bera olishi va shunday savollarga javob qaytarishi, suhbatdoshi talaba gapirgan gaplarni takrorlaganda/ to'g'rilaganda talabaga katta yordam bo'lishi ko'zda tutiladi. Monolog - yashayotgan manzili va tanish kishilarni sodda gaplar bilan ta'riflay olishi, shuningdek, do'kon va mehmonxonalarda ishlatilishi mumkin bo'lgan gaplarni gapira olishi lozim.
TN6	A2 daraja (dialog) – kundalik hayotga taalluqli murakkab bo'lmagan va tanish mavzularda muloqotga kirisha olishi, ba'zida yaxshi tushuna olmasada muloqotni davom ettirish uchun o'ziga yoqqan va yoqmagan narsalar haqida gapira olishi, istaklarini sodda tilda bayon eta olishi kerak. Monolog - oila, kundalik hayot, turmush tarzi, ta'lim olgan muassasalari va kasbini ta'riflash uchun so'z va iboralar tanlay olishi, ular yordamida gapira olishi lozim.
TN7	B1 daraja (dialog) – Talaba o'rganayotgan ikkinchi chet tilida xuddi ona tilida gaplashgandek gaplasha oladigan kishilar bilan kundalik mavzularda suhbat qura olishi, oila, hobbi, kasbiy faoliyat kabi mavzulardagi suhbatlarga osonlikcha qo'shila olishi hamda o'z fikr-

	mulohaza, his-tuyg'u va taassurotlarini bildira oladi. Monolog - talaba sodda gaplar bilan voqyea-hodisalar, orzu-istak va niyatlarini ifodalay olishi, badiiy asar yoki film syujetlarini gapirib, taasurotlarini ifoda eta olishi lozim.
TN8	B2 daraja (dialog) – til sohiblari bilan erkin muloqot olib bora olishi, tanish mavzular muhokamasida faol ishtirok etishi, shuningdek, til sohiblaridan intervyu olish va o'z navbatida ularning savollariga javob qaytara oladi. Monolog - talaba o'zini qiziqtirgan mavzular bo'yicha aniq va batafsil gaplar tuza olishi, tegishli mavzularga oid voqyea-hodisa, narsalarni ta'riflay olishi lozim.

Mashg'ulotlar shakli: Amaliyot (A)	**Amaliy dars mavzulari**
A1	A propos de moi et de mes proches
A2	Sur ma famille j'ai une famille
A3	Nationalité. Je suis ouzbek
A4	Dans une cité universitaire.
A5	Trouver un emploi Alexandre travaille
A6	Le sport. Vous faites du sport
A7	Le voyage. J'aime voyager beaucoup
A8	Organiser une voyage. une famille part en voyage
A9	Le tourisme.
A10	La gastronomie française
A11	La patrimoine
A12	Le relations humaines
A13	La santé publique
A14	Mon temps libre
A15	Nous sommes étudiants
A16	Notre appartement
A17	Les saisons de l'année
A18	Mon occupation préférée.
A19	Ma profession
A20	La mode
A21	Ville natale
A22	Ma ville natale.
A23	Je vous present mon ami(e)
A24	Au marche, faire des cours.
Jami	48 soat

Bilim ko'nikmasi (BK)	
	Bilimlar jihatidan:
BK1	Fanning tushuncha kategoriyalari tizimi va metodologiyasini bilish, bilimlarning asosiy yo'nalishlarini siyosiy tahlil qilish.
BK2	Fransuz tilida turli mavzularda muloqotga kirishish, tahlil qila olish va ulardan xulosalar chiqarish.
BK3	Ommaviy mavzulardagi va mutaxassislikka oid so'z va birikmalarni bilish va qo'llay olish
	Ko'nikmalar jihatidan:
BK4	**Tinglash ko'nikmasi** - tinglash malakasini oshirish; - hayotiy mavzularga oid tinglash mashqlari bilan ishlash;

	- tinglash jarayonidagi qiyinchiliklarni aniqlash va bartaraf etish; - tinglashdan oldin, tinglash jarayonida va tinglashdan so'ng bajariladigan topshiriq va vazifalarni ishlab chiqish; -dars rejasiga fonetik elementlarini kiritish.
BK5	**Gapirish ko'nikmasi** - muvaffaqiyatli og'zaki muloqot amaliyoti; - bahs-munozara uchun materiallar tayyorlash; - ravon va xatosiz so'zlashish amaliyoti; - o'zaro muloqot. muloqot turlarini farqlash
BK6	**O'qish ko'nikmasi** - o'qishdan oldin, o'qish jarayoni va undan so'nggi jarayon uchun vazifalar tayyorlash; - mos keluvchi o'quv matariallarini tanlash; - gazeta va jurnallardan olingan materiallardan foydalanish va ularning ahamiyati; - talabalarni maqsadga yo'naltirilgan tarzda o'qishga o'rgatish.
BK7	**Yozish ko'nikmasi** - chet tilini o'rganishda yozma nutqning ahamiyati va unga ta'sir etuvchi omillar; - yozma nutq strategiyalari bilan tanishtirish; - yozma nutq maqsadlari bilan tanishtirish; - yozma nutqda originallikni saqlash; - fikr- mulohazalarni jamlash uslublari.

Mustaqil ish ta'limni bajarish bo'yicha talablar:
(mustaqil ta'lim topshiriqlarni topshirish to'rt qismdan iborat)

Talabalar fanni fan o'qituvchi nazorati ostida mustaqil o'zlashtirishadi. Talabalar fanning har bir mavzusi bo'yicha darsdan oldin va darsdan so'ng mustaqil tayyorlanishadi. Fan doirasida o'qituvchilar tomonidan berilgan o'quv adabiyotlari bilan ishlashadi. Talabalar mavzularni puxta o'zlashtirishi, dunyoqarashi kengayishi uchun fan doirasida qo'shimcha mustaqil ta'lim topshiriqlarini (mustaqil ta'lim topshiriqlari fan o'qituvchisi tomonidan sillabusda aniq muddatlarini ko'rsatgan holda beriladi) darsdan tashqari mustaqil bajarishadi va bajarilgan ishlarni belgilangan muddatlarda guruh oldida himoya qilishadi.

Mustaqil ta'lim o'quv dasturining asosiy qismi sifatida rejalashtiriladi va quyidagi ish turlarini nazarda tutadi:

- Darslik va o'quv qo'llanmalar, maxsus adabiyotlar bo'yicha fan bo'limlari va mavzularni o'rganish va ustida ishlash;
- Tanlangan mavzu bo'yicha referatlar yozish;
- Qo'shimcha ma'lumotlar to'plash va o'rganish;
- Mustaqil tarzda amaliy mashqlar va testlar to'plamini bajarish. debat olib borish.

Mustaqil ta'lim uchun mavzular

1	Sujet de la conversation. Au café. Le petit dejuner. Un dejuner rapide. A la cantine
2	Sujet de la conversationAu tetéphone A la maison Au buraue
3	Sujet de la presentation :La vie quotidienne Tu parle les langues etrandéres.
4	Sujet de la conversation. Le tourisme
5	Sujet de la conversation : Les rensienement. Au bibliotique A la banque .
6	Sujet de la conversation: La santé. Clotte ne va pas bien
7	Sujet de la conversation: Le relations humaines
8	Sujet de la conversation: S'interesser a quel qu'un
9	Sujet de l'essai : Les fetes nationale
10	Sujet de la conversation: Les taches domistique
11	Sujet de l'essai : La lettre a son ami(e).
12	Crammaire : Faire des bilans
13	Sujet de la conversation: Le patrimoine
14	Sujet de la conversation. Le voyage
15	Sujet de l'essai : j'aime ma ville natale
16	Sujet de la conversation: l'immobilier.
17	Sujet de la conversation: Mon appartement
18	Sujet de l'essai : ma vie universetaire

	Asosiyadabiyotlar
1.	Alter Ego. A1. Methode de Français. Hachette Français Langue Etrangaire. France. 2013. 66 p.

2.	Annie Berthet. Catherine Hugot, Veronique M. Kizirian, Beatrix Sampsonis, Monique Waendendries. Alter Ego-Methode de Français. HACHETTE Français Langue Etrangaire. France – 2013
3.	Andreychikova L.L. va boshqalar Fransuz tili grammatikasi. – Toshkent, 1992
4.	Aliqulova Д. A.,Joraboyeva Д. A. Fransuz tili darsligi. Toshkent , 1999.
5.	Manuel de français.Moscou. 2011
6.	Fransuz tili darsligi. Samarqand, M.M.Yuldashev 2021
	Tavsiya qilinadigan qo'shimcha adabiyotlar
7.	Fransuzcha - ruscha. ruscha-fransuzcha lug'at. Barcha nashrlari.
8.	Méthode de français rapide prévue su : 2 niveaux pour adultes pressés et impatients **« vite et bien » Claire Miquel.**
9	LarisaMuradova Домашние репititор 60 устных тем по французскому языку Аерис-пресс Москва 2006 г.
	Internet saytlari
10	http://www.cle.fr/centre_linguistique-fr-idm-105-n-Exercices
14	www. granddictionnaire. Com
15	www. fran. Edu
16	www. Ziyonet. Uz
17	Ibrat farzandlari hamma darslari https://www.youtube.com/watch?v=t6ZSt-6Xalk
18	https://www.google.com/search?q=le+francais+delf&rlz=1C1GGRV_enUZ947UZ947&oq=le+francais+delf&aqs=chrome..69i57j0i22i30l4.11570j0j15&sourceid=chrome&ie=UTF-8

1	Fan dasturi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Ilmiy Kengashining 2024 yil "_____" _____ ___-son bayonnomasi bilan ma'qullangan.
2	**Fan/modul uchun mas'ullar:** Sharof Rashidov nomidagi SamDU, Xorijiy tillar kafedrasi o'qituvchisi f.f.f.d (PhD) X.A.Arziqulova
3	**Taqrizchilar:** Sharof Rashidov nomidagi SamDU, Xorijiy tillar kafedrasi professori Yuldashev M.M.

Fan o'qituvchisi to'g'risida ma'lumot

Muallif:	f.f.f.d (PhD) X.A.Arziqulova
E-mail:	Xurshidaarziqulova85@.gmail.com 93 873 85 55
Tashkilot:	Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitet Xorijiy tillar kafedrasi

Universitetning 2024-yil ___-_____ _____-buyrugi asosida fan dasturlari va mustaqil ta'lim topshiriqlarini ishlab chiqishga

mas'ul ishchi guruhi: **Rais: dots. Isakova N.A.**

Kafedra mudiri: **dots.S.U.Tagayeva**

Faluktet dekani: **prof: J.D.Eltazarov.**

O'quv ishlari bo'yicha 1-prorektor: **prof. A. S. Soleyev**

Mazkur modul filologiya fakulteti Kengashining 2024-yil_____ dagi ____ -sonli yig'ilishida ko'rib chiqilgan va tasdiqlangan

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti 2024-2025 o'quv yili uchun Xorijiy tillar kafedrasi o'qituvchilari tomonidan tayyorlangan bakalavriat yo'nalishi 1-2- bosqich talabalari uchun Fransuz tili fan dasturga

TAQRIZ

Fransuz tili fan sifatida tili o'rganilayotgan mamlakatlarning badiiy adabiyot na'munalarini o'qish va mazmunini anglash, davriy matbuot nashrlarida bayon etilgan asosiy voqea-hodisalar to'g'risida o'qib, ma'lumotga ega bo'lishi hamda ularni og'zaki so'zlab berish. mazmunni yozma bayon etishga o'rgatish ko'zda tutiladi. Ushbu fandan o'tiladigan amaliy mashg'ulotlarda matn bilan ishlash asosida talabalarning nutqiy malakasini oshirish orqali turli xil nutq uslublarini bilib olish ko'nikmasi shakllanadi.

O'rganilayotgan tilning og'zaki va yozma nutq amaliyoti, amaliy fonetika va grammatika qismlarida talabalar olgan bilimlarini og'zaki tarjima, yozma tarjima, shuningdek, psixologiya, pedagogika, metodika sohalari bo'yicha amaliy kurslarni o'rganish jarayonida foydalana olishi shart. Chet tilini o'qitishda barcha til ko'nikmalari tinglab tushunish, o'qish, yozish va gapirish talabalarga integrallashgan holda o'qitiladi. Kurslar kesimida ishchi o'quv dasturlarni ishlab chiqish va talabalar bilimini baholash mezonlarga asoslanadi.

O'rganilayotgan chet tilini kommunikativ, lingvistik, sosiolingvistik, diskursiv, strategik, kasbiy, umummadaniy kompetentlikni integrallashgan yondashuv asosida o'qitishdan iborat. Kompetentlik, kommunikativ va integrallashgan yondashuvlar xorijiy tilni faol kommunikativ muloqot vositasi sifatida kasbiy faoliyatda amaliy qo'llay olish tamoyillariga ko'ra belgilanadi. Fanni vazifasi – talabalarni nutq vaziyatlarini to'g'ri baholagan holda ulardan to'g'ri va unumli foydalana olishga o'rgatish, tilning fonetik, grammatik, leksik va stilistik, tipologik jihatdan to'laqonli nutq ko'nikmalarini shakllantirish, shuningdek ularning o'rganilayotgan ikkinchi chet tilida ravon va aniq so'zlashishlarini hamda hozirgi paytda dunyoda sodir bo'layotgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy voqelikka o'rganilayotgan chet tilida o'z munosabatlarini bildira olishlarini ta'minlashdan iborat.

"Fransuz tili" fan dasturi doirasida talabaga qo'yilgan talablarni:-chet tilini Umum Yevropa standartlariga ko'ra B2 darajada o'zlashtirish o'rganilayotgan ikkinchi chet tilida o'qish, tinglab tushunish, gapirish va yozish ko'nikmalarini egallash, grammatik va leksik qurilmalarni muloqotda qo'llash, farqlay olish va ularni og'zaki va yozma nutqda to'g'ri ishlatish, kasbiy yo'nalish va ijtimoiy-madaniy mavzulardagi so'zlarning ma'nosini bilish va to'g'ri qo'llay olish, og'zaki nutq va yozma matnlarga xos xususiyatlarni farqlay olish va muloqotda to'g'ri qo'llash, grammatika, leksika va diskurs tahlili bo'yicha tasavvur, bilim, malaka va ko'nikmalarga, kompetensiyalarga ega bo'lishni o'z ichiga olgan.

Fan dasturi asosida tayyorlangan sillabus nofilologik yo'nalishlarda 1-bosqich talabalari uchun 48 soat 2- bosqich talabalari uchun 110 soat ajratilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, nofilologik yo'nalishlar uchun tayyorlangan fan dasturi belgilangan talablarga javob beradi deb xisoblayman.

Samarqand davlat Chet tillar instituti
Fransuz tili va adabiyoti kafedrasi professori,
filologiya fanlari doktori, professor **U.D.Qarshibayeva**

TASDIQLAYMAN

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti 2024-2025 o'quv yili uchun Xorijiy tillar kafedrasi o'qituvchilari tomonidan tayyorlangan bakalavriat yo'nalishi 1-2- bosqich talabalari uchun Fransuz tili fan dasturga

TAQRIZ

Fransuz tili fan sifatida tili o'rganilayotgan mamlakatlarning badiiy adabiyot na'munalarini o'qish va mazmunini anglash, davriy matbuot nashrlarida bayon etilgan asosiy voqea-hodisalar to'g'risida o'qib, ma'lumotga ega bo'lishi hamda ularni og'zaki so'zlab berish, mazmunni yozma bayon etishga o'rgatish ko'zda tutiladi. Ushbu fandan o'tiladigan amaliy mashg'ulotlarda matn bilan ishlash asosida talabalarning nutqiy malakasini oshirish orqali turli xil nutq uslublarini bilib olish ko'nikmasi shakllanadi.

O'rganilayotgan tilning og'zaki va yozma nutq amaliyoti, amaliy fonetika va grammatika qismlarida talabalar olgan bilimlarini og'zaki tarjima, yozma tarjima, shuningdek, psixologiya, pedagogika, metodika sohalari bo'yicha amaliy kurslarni o'rganish jarayonida foydalana olishi shart. Chet tilini o'qitishda barcha til ko'nikmalari tinglab tushunish, o'qish, yozish va gapirish talabalarga integrallashgan holda o'qitiladi. Kurslar kesimida ishchi o'quv dasturlarni ishlab chiqish va talabalar bilimini baholash mezonlarga asoslanadi.

O'rganilayotgan chet tilini kommunikativ, lingvistik, sosiolingvistik, diskursiv, strategik, kasbiy, umummadaniy kompetentlikni integrallashgan yondashuv asosida o'qitishdan iborat. Kompetentlik, kommunikativ va integrallashgan yondashuvlar xorijiy tilni faol kommunikativ muloqot vositasi sifatida kasbiy faoliyatda amaliy qo'llay olish tamoyillariga ko'ra belgilanadi. Fanni vazifasi – talabalarni nutq vaziyatlarini to'g'ri baholagan holda ulardan to'g'ri va unumli foydalana olishga o'rgatish, tilning fonetik, grammatik, leksik va stilistik, tipologik jihatdan to'laqonli nutq ko'nikmalarini shakllantirish, shuningdek ularning o'rganilayotgan ikkinchi chet tilida ravon va aniq so'zlashishlarini hamda hozirgi paytda dunyoda sodir bo'layotgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy voqelikka o'rganilayotgan chet tilida o'z munosabatlarini bildira olishlarini ta'minlashdan iborat.

"Fransuz tili" fan dasturi doirasida talabaga qo'yilgan talablarni:-chet tilini Umum Yevropa standartlariga ko'ra B2 darajada o'zlashtirish o'rganilayotgan ikkinchi chet tilida o'qish, tinglab tushunish, gapirish va yozish ko'nikmalarini egallash, grammatik va leksik qurilmalarni muloqotda qo'llash, farqlay olish va ularni og'zaki va yozma nutqda to'g'ri ishlatish, kasbiy yo'nalish va ijtimoiy-madaniy mavzulardagi so'zlarning ma'nosini bilish va to'g'ri qo'llay olish, og'zaki nutq va yozma matnlarga xos xususiyatlarni farqlay olish va muloqotda to'g'ri qo'llash, grammatika, leksika va diskurs tahlili bo'yicha tasavvur, bilim, malaka va ko'nikmalarga, kompetensiyalarga ega bo'lishni o'z ichiga olgan.

Fan dasturi asosida tayyorlangan sillabus notilologik yo'nalishlarda 1-bosqich talabalari uchun 48 soat 2- bosqich talabalari uchun 110 soat ajratilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, notilologik yo'nalishlar uchun tayyorlangan fan dasturi belgilangan talablarga javob beradi deb xisoblayman.

Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti Filologiya fakulteti

Xorijiy tillar kafedrasi professori: **M.M.Yuldashev.**

_____ning imzosini
tasdiqlayman
Sharof Rashidov nomidagi
SamDU xodimlar bo'limi boshlig'i

XODIMLAR BO'LIMI